



XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2026-yil 1- avgust holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026- yil 1- avgust holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 29 719 tani tashkil etadi, shundan 26 224 tasi yoki 88,2 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir.

2025- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,9 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 115,1 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)



Soni



O'sish sur'ati



	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	29 719	26 224	24 866
2025	26 081	22 787	22 654
2024	26 844	23 692	23 561
2023	26 301	23 249	23 119
2022	27 175	24 063	23 933

Tumanlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Urganch shahrida – 19,6 foiz, Urganch – 11,1 foiz, Xonqa – 7,9 foiz va Qo'shko'pir tumanlarida – 7,4 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Urganch shahrida – 19,2 foiz va 18,5 foiz, Urganch – 11,3 va 11,0 foiz, Xonqa – 8,1 foiz va 8,0 foiz hamda Qo'shko'pir – 7,4 foiz va 7,6 foiz tumanlarga to'g'ri keldi

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Bog'ot	1924	1687	1631
Gurlan	1892	1665	1611
Qo'shko'pir	2195	1934	1884
Urganch	3300	2975	2746
Hazorasp	1971	1704	1615
Tuproqqal'a	833	711	669
Xonqa	2357	2113	1995
Xiva	1851	1645	1597
Shovot	1948	1678	1618
Yangiariq	2144	1947	1891
Yangibozor	1443	1263	1234
Urganch sh.	5831	5048	4611
Xiva sh.	2030	1854	1764

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)



Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi savdo tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1- avgust holatiga 31,0 foizni (35,0 foiz va 34,8 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar

Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 13,6% (15,2% va 15,4%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 13,5% (15,2% va 15,6 %).


Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ular umumiy sonining 58.1 % ni tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4001	3974	3955
Sanoat	4036	3999	3880
Qurilish	1662	1627	1461
Savdo	9207	9180	8662
Tashish va saqlash	1224	1210	1117
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1976	1957	1720
Axborot va aloqa	565	545	537
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	864	653	604
Boshqa turlar	6184	3079	2930



I. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-avgust holatiga ko'ra, 26 402 ta faol tijorat korxonalaridan 18 588 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari

Shundan kelib chiqib, MCHJ lar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.


	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	18 588	70,4
Xususiy korxonalar	3 892	14,7
Oilaviy korxonalar	3 736	14,2
Aksiyadorlik jamiyati	25	0,1
Boshqalar	161	0,6



II. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 214 ta korxonadan 72 tasi qo'shma korxona va 142 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni 2025-yilning mos davriga nisbatan 48 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasida 48 tadan 68 taga (o'sish 20 taga), sanoat sohasida 38 tadan 50 taga (o'sish 12 taga) , va axborot va aloqa sohasidagi korxonalar sonining 14 tadan 23 taga (o'sish 9 taga) ko'payishi hisobiga to'g'ri keldi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	214	72	142
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16	12	4
Sanoat	50	21	29
Qurilish	19	9	10
Savdo	68	15	53
Tashish va saqlash	4	1	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9	4	5
Axborot va aloqa	23	2	21
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	2	4
Boshqa turlar	19	6	13



Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 44 ta korxona bilan Turkmaniston egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,6 foizini tashkil etdi. Xorazm iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (18,7%), Turkiya (15,0%), Xitoy (13,1%) va Qozog'iston (4,2) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	214	72	142
Xitoy	28	6	22
Rossiya	40	17	23
Turkiya	32	15	17
Qozog'iston	9	3	6
Buyuk Britaniya	1	0	1
Janubiy Koreya	4	3	1
AQSH	6	2	4
Turkmaniston	44	8	36
Pokiston	3	0	3
Yaponiya	4	2	2
Qirg'iz.Respublikasi	7	1	6
Hindiston	2	0	2
Boshqalar	34	15	19



III. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun ma'sul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
R.O'rinov
(62) 227-77-88

Manzil:
220100, Urganch sh.,
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy

